

Mavzu: ANDIJON SHAHRIDAGI “ BOG‘I BOBUR”

Mushtariy Farhodjonovna Abdug‘aniyeva

Annotatsiya: Bu maqolada Andijon shahrining so‘lim joylaridan birida joylashgan “ Bog‘i bobur” yani Zahriddin Muhammad Bobur nomidagi istirohat bog‘i haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: “ Bog‘i Bobur” , ziyoratgoh, jahon madaniyati,muzey, Zahriddin Muhammad Boburning hayot yo‘li

Boburning avlodlari

Bobur (taxallusi) to‘liq ismi Zahiriddin Muxammad ibn Umarshayx Mirzo. U 1483- yil 14- fevral kuni Andijonda tavallud topgan. Buyuk sarkarda,mumtoz adabiyotni yirik namoyandasi, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh bo‘lgan. Amir Temurning pannevarasi bo‘lgan.

Otasi: Umarshayx Mirzo

Onasi: Qutlug‘ Nigorxonim

Turmush o‘rtoqlari; Mohimbegim, Oysha Sultonbegim, Zaynab Sultonbegim, Masuma Sultonbegim, Bibi Muborika.

Farzandlari; Humoyun, Kamron Mirzo Gulbadanbegim, Hindol Mirzo, Gulchehrabegim,

Vorisi: Humoyun

Boburning hayot yo‘li

Boburning yoshligi Andijon o‘tgan ammo ammo ming afsuski barchaga ayon bo‘lgan sabablar bilan ota yurtini tashlab Hindiston tomonlarga ketgan va uyerda o‘z saltanatini barpo etgan etgan. Lekin uning ko‘ngli hamon Andijon tomonlarda qolgan . Shu boisdan u har bir yozgan g‘azal va ruboiylarida avvalo vatanni o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyni madh etgan. 1530- yilning 26- dekabrda vafot etgan.Lekin uning madaniy merosi haligacha saqlanib kelmoqda.

“ Bog‘i Bobur “ haqida

Bobur milliy bog‘i majmuasi (Bog‘i Bobur) ham deb ataladi. U Andijonning janubi sharqida -Buyuk ipak yo‘li yoqasi (Bog‘ishamol) dagi adirda joylashgan yodgorlikdir. Uning me‘rosi (Muhammad Mirzayev) Bog‘i Bobur Bog‘i Andijon shahrida 8 km uzoqlikda joylashgan. Andijon shahri va atrofidagi aholining oromgoh va ziyoratgoh joyi. Bu yerda Mustaqillik kunlari xalq sayllari bo‘lib o‘tadi. Qurilish boshlanishi 1991- yilda boshlanib 1992- yil da tugatildi . Uning materiallari Marmar toshlar bilan barpo etilgan. Bu joy Zahiriddin Muxammad Bobur tavalludining 510- yilligi munosabati bilan 1993- yilda foydalanishga topshirilgan va hozirgacha o‘z holatini yo‘qotmay nafaqat . O‘zbekiston aholisini balki butun dunyo bo‘yicha turistlar ham keladi. Chunki bu yerda “ Bobur va jahon madaniyati “ muzeyi qad ko‘targan va u yerga kirishidan oldin haykaltarosh(Qodirjon Salohiddinov) tomonida o‘rnatilgan ichida naqshinkor rasmlarda Boburnoma asaridan ayrim narsalar keltirilgan. Bunday mahoratni raasom (Ulug‘bek Boltaboyev) chizgan. Muzeyning ichida tarixiy kitoblar, “ Xatti Boburiy “ da o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan Qur‘on ko‘rim nusxalari, Bobur davri qurol aslahalari tanga pullar saroy ahli kiyimlari namunlari qo‘yilgan. Bu yerdan chiqib ikki yonidan o‘tgan marmar zinadan tepaga qarab yurilsa Boburning qabri ramziy maqbarasi (Kobuldagi Bobur qabri tuprog‘i)dan olib kelingan. U yerning ham tepa qismida hunarmandchilar uchun ish joyi yoshlar uchun ham ko‘ngil ochar o‘yin turlari jamlangan hudud bor. Bundan tashqari u yerda bog‘ mavjud bo‘lib u yerda 20 xil daraxt va o‘simlikning ham bir qancha turi mavjud. Istirohat bog‘ining yuqorisida 2 kilometr uzunlikda bo‘lgan osma ko‘prik bor.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish lozimki bu yerda ham ko‘ngil ochar bog‘ va turistlar uchun ham bizni tariximiz va madaniyatimizni ko‘rsatib beruvchi joylar ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000 – 2005) yillar

Xuddi shu kitob 1 – jild Toshkent (2000)

Andijon davlat chet tillar instituti talabasi Abdug‘aniyeva Mushtariy Farhodbekovna.